MAKTAB DARSLIKLARIDA NUTQ MADANIYATI VA STILISTIK ME'YORLARNING UYG'UNLIGI

Sayfullayev Najibullo Hayriddin o'g'li
TerDPI katta o'qituvchisi
sayfullayevnajibullo@gmail.com Tel: +998937656367
Jo'rayeva Marjona Baxtiyor qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti 4-kurs talabasi.
Tel: +99850 501 81 88
marj0na.baxtiy0r0vna0203@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab darsliklarida nutq madaniyati va stilistik me'yorlarning uyg'unligi, ularning o'quvchilar nutqini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Nutq madaniyati o'quvchilarga fikrni aniq, ravon va odobli ifodalashni o'rgatsa, stilistik me'yorlar til vositalaridan vaziyatga mos va o'rinli foydalanishni ta'minlaydi. Mazkur ikki yo'nalishning darsliklarda uyg'un berilishi o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish, to'g'ri va ifodali so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, stilistik me'yor, maktab darsliklari, tilshunoslik, til birliklari, adabiy til, ifodali nutq, uslub, aniq va ravon fikr,muloqot, nutqiy kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается гармония культуры речи и стилистических норм в школьных учебниках, а также их роль и значение в формировании речи учащихся. Культура речи учит учащихся ясно, плавно и вежливо выражать свои мысли, тогда как стилистические нормы обеспечивают уместное и соответствующее ситуации использование языковых средств. Гармоничное представление этих двух направлений в

учебниках способствует повышению речевой грамотности учащихся и развитию навыков правильной и выразительной речи.

Ключевые слова: культура речи, стилистическая норма, школьные учебники, лингвистика, языковые единицы, литературный язык, выразительная речь, стиль, ясная и плавная мысль, общение, речевая компетенция.

Abstract: This article highlights the harmony of speech culture and stylistic norms in school textbooks, as well as their role and importance in shaping students' speech. Speech culture teaches students to express their thoughts clearly, fluently, and politely, while stylistic norms ensure the appropriate and context-based use of language means. The harmonious presentation of these two areas in textbooks contributes to improving students' speech literacy and developing their ability to speak correctly and expressively.

Abstract: speech culture, stylistic norm, school textbooks, linguistics, language units, literary language, expressive speech, style, clear and fluent thought, communication, speech competence.

Til – so‘zlar va tovushlar tizimi bo‘lib, o‘zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladi. Til orqali nafaqat ma’lumot beriladi, balki ifodalanayotgan fikrga so‘zlovchi o‘z his-tuyg‘u va munosabatlarini ham qo‘shishi mumkin. Yer yuzida juda ko‘plab til mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z xalqining madaniyati, urf-odat va an’analarini namoyon etishda, bilim va tajribalarini avloddan-avlodga o‘tkazishga xizmat qiladi. Til bilan nutq va til me’yorlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, tilni asosiy tizim deb qarasak, nutq uslublari – ularning turli vaziyatlarda qo‘llanishi, til me’yorlari esa shu jarayonda to‘g‘ri va adabiy jihatdan yondashishni ifodalaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki ularning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda maktab darsliklari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan darsliklar orqali o'quvchilar tilning adabiy me'yorlarini o'zlashtiradi, fikrni to'g'ri, aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini egallaydi. Shu sababli darslik matnlarining nafaqat mazmunan boy, balki nutq madaniyati talablariga to'liq javob berishi katta ahamiyat kasb etadi.

Nutq madaniyati nafaqat o'quvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun zarur bo'lgan tushunchadir.Nutq madaniyati insonlar bilan samarali muloqot qilish, shaxsning madaniy saviyasini ko'rsatish, ta'lim va ish faoliyatida muvaffaqiyatga eltish, jamiyatda hurmat qozonishga xizmat qiladi.

"Tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, to'g'ri foydalanilgan holda tuzilgan nutq madaniy nutqdir. Nutq madaniyati esa ana shu tilni – aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Bu noyob qurolni ishlatishga bo'lgan munosabat qanchalik yomon bo'lsa, uni ishlatishga qanchalik befarqlik bilan qaralsa, nutqning madaniylik darajasi ham shunchalik past bo'ladi va aksincha, munosabat qanchalik yuqori bo'lsa, nutq ham, aloqa ham shunchalik madaniy bo'ladi".

So'zlovchi yoki yozuvchining til imkoniyatlariga munosabati, uni qo'llash jarayonida tafakkur, ong, borliqni anglash, turli vaziyat va holatlarni to'g'ri baholash hamda maqsadga yo'naltirilgan yondashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning nutq madaniyati ham shunchalik rivojlangan bo'ladi; aks holda, nutq madaniyati ham past darajada qoladi.

Nutq madaniyati esa tilning qonun-qoidalarini chuqur anglash, fikrni aniq va tushunarli ifodalash, ravon va ta'sirchan nutq tuza olish hamda tilning ifoda

vositalaridan mazmun va uslubga mos ravishda, nutq vaziyatiga qarab to‘g‘ri foydalanish qobiliyatidir.

Nutq madaniyati til birliklaridan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanish, fikrni aniq va ta’sirchan ifodalashni nazarda tutadi. Stilistik me’yorlar esa til vositalarining muayyan nutq vaziyatiga mos ravishda tanlanishini taqozo etadi. Ushbu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi darslik matnlarining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Stilistik me’yor – vaziyatdan kelib chiqib qanday gapirish yoki yozish kerakligini belgilab beradigan qoida**.** Stilistik me’yorlarning maktab darsliklarida berilishi o‘quvchilarning to‘g‘ri, o‘rinli va ifodali nutq tuzish ko‘nikmasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tilshunoslik doirasida stilistika til vositalarining turli uslubiy imkoniyatlarini o‘rganadi va bu bilimlar darsliklar orqali bosqichma-bosqich beriladi.

Maktab darsliklarida stilistik me’yorlar o‘quvchilarga adabiy tilning turli uslublarini (so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, badiiy va publitsistik uslublar) farqlash, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash va nutqiy vaziyatga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatadi. Bu esa o‘quvchining fikrini aniq, ravon va maqsadga muvofiq ifodalash malakasini rivojlantiradi.

Shuningdek, darsliklarda berilgan mashqlar va matnlar orqali o‘quvchilar til vositalarini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlash, so‘z va iboralarni o‘rinli qo‘llash hamda nutqni boyitish ko‘nikmalarini egallaydi. Shu tariqa, stilistik me’yorlar maktab ta’limida nutq madaniyatini shakllantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytgada, maktab darsliklarida nutq madaniyati va stilistik me’yorlar mavzulari o‘quvchilarga tilni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llashni o‘rgatadi. Bu

mavzular orqali ular turli vaziyatlarda fikrni aniq, ravon va maqsadga mos ifodalashni o'zlashtiradi hamda o'z nutqini madaniyatli va ta'sirchan qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish.Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,-Toshkent: 2013.
2. R.Rasulov, Q.Mo'ydinov. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.O'quv qo'llanma. Toshkent:2015.
3. N.Bekmirzayev. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi . «Fan» nashriyoti: 2007.
4. R.Jumaniyozov , S. Salimov G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. Toshkent, 2002.
5. S.Nazarova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti: 1992.
6. G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti:1995